Alimirzayev Nodirbek Avazbek o'g'li	
Integratsiyalashgan va interaktiv yondashuvlar orqali o'qish tushunishini o'rgatish.....	643
Aliqulova Mohinur	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktorlarning shaxsiy kasbiy fazilatlarini shakllantirish.....	647
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ravshanova Noila	
Didactic Potential of Innovative Methods in Teaching Biophysics Module	652
Choriyeva Mahfuza Sadriddinovna	
Notiqlik mahoratini rivojlantirishning tarixiy pedagogik ildizlari	657
Ismoilov Usmonjon Baxramjon o'g'li	
Kartografiya darslarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan boyitish yo'llari.....	660
Jololdinov Asror Toshmurovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik guruh tarbiyalanuvchilariga yo'l harakati turlari bo'yicha xavfsizlik talablarini o'rgatish.....	664
Jumayev Yunus Rashidovich	
Texnika yo'nalishidagi talabalarini ingliz tilini multimedia asosida o'qitishda o'quv modullarini loyihalash...	670
Maxmudova Shaxnozaxon Odiljon qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayonida tanqidiy fikrlashga o'rgatish	674
Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Sobirova Munavvarxon Qaxramonjonovna	
Tajovvuz emotsiyasini tafsiflovchi fe'llar	677
Normaxmatova Feruza Ruziboyevna	
O'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish usullari	681
Otegenov Berdibay Menglibaevich	
Texnika yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida rivojlantirish muammolari	684
Pozilova Shaxnoza Xaydaraliyevna, Xolmirzayeva Gulchehra Tulanovna	
Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari: talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy metodologik tamoyillar.....	689
Qurbonova Gulmira Alisher qizi	
Maktab o'quvchilarida xalqaro baholash dastur talablari asosida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari	693
Radjapov Ruslanbek Sarsenovich	
Raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	697
Shoyzakova Hilola Yusuf qizi	
Talabalar ehtiyojlari va qobiliyatlari asosida oliy ta'limda differensial yondashuvni amalga oshirish strategiyalari	701
Sultonova Farangiz Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviyatini oshirishda kitobxonlikni keng targ'ib qilish	706
Usmanova Maxfuza	
Talabalarda axloqiy qadriyatlarni singdirishning pedagogik asoslari	709
Xolov Olimjon Chorshamiyevich	



Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish metodikasi.....	712
Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna	
Влияние социальных сетей на формирование мировоззрения учащихся младшего подросткового возраста.....	716
Ибрагимова З. И.	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish metodikasi	720
Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich	
Oliy ta'lim talabalarida ma'naviy-axloqiy madaniyat samaradorligini oshirishda jadid pedagogik merosining o'рни	725
Raxmatova Dilbar Anvar qizi	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA DIREKTORLARNING SHAXSIY KASBIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH

Choriyeva Durdona Anvarovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti,
Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti, PhD

Ravshanova Noila

"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini, ularning professional rivojlanish jarayonidagi o'rni hamda ta'lim sifati va samaradorligiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida direktorlarning rahbarlik kompetensiyalarini mustahkamlash yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar: professional rivojlanish komponentlari, jamoa ishini kuchaytirish, sifatli ta'lim, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ta'lim, treninglar, murabbiylik, hamkasblar bilan hamkorlik, reflektiv faoliyat, liderlik, normativ-metodik qo'llab-quvvatlash.

Abstract: This article examines the personal and professional qualities of directors of preschool educational organizations, their role in professional development, and their impact on the quality and effectiveness of education. It also analyzes ways to strengthen leadership competencies of directors through modern pedagogical approaches.

Key words: components of professional development, strengthening teamwork, quality education, modern pedagogical approaches, education, trainings, coaching, cooperation with colleagues, reflective activity, leadership, normative and methodological support.

Аннотация: В данной статье рассматриваются личностно-профессиональные качества директоров дошкольных образовательных организаций, их роль в процессе профессионального развития, а также влияние на качество и эффективность образовательного процесса. Кроме того, анализируются пути укрепления лидерских компетенций руководителей на основе современных педагогических подходов.

Ключевые слова: компоненты профессионального развития, усиление командной работы, качественное образование, современные педагогические подходы, обучение, тренинги, коучинг, сотрудничество с коллегами, рефлексивная деятельность, лидерство, нормативно-методическое обеспечение.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jamiyat rivojlanishidagi o'tish va o'zgarishlar davrida davlat boshqaruvidagi, jumladan, maktabgacha ta'lim sohasida boshqaruvning barcha darajalaridagi rahbarlar oldida turgan murakkab vazifalarni bajarishda professionalizmga, keng davlat darajasidagi tafakkurga, kuchli irodaga, insoniy fazilatlarga, maqsadga intilganlikka egaligi bilan ajralib turishlari kerak.

Zero, Prezident Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ish yuzasidan talabchanlik qilish boshqa, odamlarning shaxsiyatiga tegish butunlay boshqa narsa. Odamlar ish yuzasidan sizga bo'ysunishi mumkin, boshqa har qanday masalada siz bilan teppa-teng huquqqa ega ekanini aslo esdan chiqarmang. ... Barchamiz yaxshi bilamiz, xalqimiz oriyatli, nomusli xalq. Xalqimiz barcha narsaga chidashi mumkin, lekin, takror-takror aytaman, adolatsizlik va nohaqlikka chiday olmaydi. Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish uchun rahbar etib tayinlanadi. Barcha bo'g'in-dagi rahbarlar – u vazir yoki hokim bo'ladimi, idora yoki tashkilot boshlig'i bo'ladimi, odob-axloqi va madaniyati bilan hammaga o'rnak va namuna bo'lishi zarur".

Prezidentimiz bugungi kun uchun o'ta muhim va dolzarb bo'lgan bir qator vazifalarga to'xtalar ekan, shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda vujudga kelayotgan yangidan-yangi talablarni har bir inson qayerda va qanday lavozimda ishlamasin chuqur anglashi, ishga va hayotga munosabatini o'zgartirib borishi zarurligini ta'kidlab o'tdilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktorlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini bo'yicha bir qancha olimlar izlanishlari mavjud. Respublikadagi o'zbek olimlaridan Kurbanov Ibratbek maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zaruriyati, kompetensiya tarkibi hamda model takliflarini muhokama qilgan. Xamdamova Malohatxon "Direktorning boshqaruv faoliyatini rivojlantirish shart-sharoitlari" mavzusidagi maqolalarida direktorning boshqaruv faoliyatining malaka jihatidan qaysi pedagogik sharoitlar zarurligi ko'rib chiqilgan. Sa'idova Xurshidaxon direktorlarning shaxsiy kompetensiyalarini qay darajada shakllanganini baholash uchun indikatorlar va mezonlar haqida tadqiqot ishlarini olib borgan. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich va Xolmatova Muslimaxon Toirjon qizi "Pedagogical Personal Characteristics of Professional Employees in Preschool Educational Organizations" nomli maqolada pedagog xodimlarning shaxsiy-pedagogik xususiyatlari, shu jumladan, ruhiy-axloqiy fazilatlar haqida fikr yuritilgan. Mamura Xushnazarova "Tasks of Professional Preparation of Managerial Personnel and Pedagogues for Preschool Educational Institutions" nomli tadqiqot ishlarida maktabgacha ta'limda rahbarlik (direktorlik) lavozimi uchun boshqaruv, tashkiliy, ma'naviy-axloqiy va metodik jihatlar tahlil qilingan. MDH olimlaridan A. Lazaridou o'z tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim direktorlari (rahbarlari)ning shaxsiy fazilatlarini, shaxsiy xulq-atvor omillari va ularning chidamliligi tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining professional rivojlanish komponentlari, ularning rahbarlik ko'nikmalarini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan bir qator muhim elementlarni o'z ichiga olib, bunda jamoa ishini kuchaytirish, sifatli ta'lim berish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llashga qaratilgan bir qancha vazifalarni amalga oshirish orqali direktorlar o'z faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishlari mumkin.

Qadriyatlar-munosabatlar pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning ahamiyatini belgilaydi. Qadriyatlar-fazilatlar rahbarning maxsus qobiliyatlari: faoliyatni oldindan aytib berish qobiliyati, hamkorlik va birgalikda boshqarish qobiliyati va boshqalarda namoyon bo'ladi.

"Boshqaruv madaniyatining texnologik komponenti pedagogik jarayonni tahlil qilish, rejalashtirish va tashkil etish, nazorat qilish hamda tartibga solish sohasidagi rahbarning mahoratiga asoslangan pedagogik muammolarni hal qilish usullari va uslublarini o'z ichiga oladi. Boshqaruv madaniyati darajasi ushbu ko'nikmalarning darajasi bilan belgilanadi. Shaxsiy-ijodiy komponent boshqaruv faoliyatining ijodiy xususiyatidan dalolat beradi".

XXI asr – intellektual taraqqiyot asri, deb ko'p gapiramiz. Modomiki, shunday ekan, bugungi kunda rahbar nafaqat aniq bir kasb-hunarning egasi, balki avvalo o'zining faoliyati va insoniyligi bilan xalqning ishonchiga munosib bo'lishi, yuksak intellektual tafakkur sohibi, uzoqni ko'ra oladigan, doimo yangilikka intilib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashaydigan, qat'iyatli shaxs bo'lishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori ham ta'lim tashkiloti boshqaruvini zamonaviy usullarda tashkil etishi zarur. Bu esa undan ilg'or tajribalarni va fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib, o'z faoliyatiga tatbiq etib borishni, kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashuvni talab qiladi. Agar maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorida boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha zarur bilim, tajriba, pedagogik mahorat, ko'nikma va malakalar yetarli bo'lmasa, ta'lim jarayonini boshqarishda vujudga keladigan turli muammolarning o'z vaqtida oqilona yechimini topishda uning o'zligi sezilib qoladi. Ularning oldini olish, pedagogik xodimlar faoliyatini takomillashtirish va natijada o'quv jarayonini rivojlantirishning eng asosiy shartlaridan biri rahbar boshqaruv faoliyatining ilmiy asosda tashkil etilishidir. Xalqimizda rahbar kadrlar va ularga xos xususiyatlarga sharqona yondashuvning boy tarixiy-madaniy an'analari mavjud.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktor (rahbar)ning shaxsiy kasbiy fazilatlarini shakllantirish – samarali rahbarlik va sifatli ta'lim-tarbiya muhitini yaratish uchun muhim masala hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi bolalikdan: bolaning ijtimoiy, emotsional, aqliy, estetik rivojidan shakllana boshlaydi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbari, ya'ni direktor, nafaqat boshqaruvchi, balki pedagogik-ijtimoiy taraqqiyot yo'lida yo'naltiruvchi bo'lishi zarur. Rahbarlik faqat nazariy bilimlardan iborat emas, balki shaxsiy fazilatlar, xarakter, psixologik va ijtimoiy kompetensiyalar kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan uyg'unlashganda



eng samarali bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari uchun kasbiy standartlar tasdiqlangan, shaxsiy fazilatlar ham ularda alohida nazarda tutilgan. Rahbarlar uchun ham shunga o'xshash talablar, standartlar va mas'uliyatlar shakllantirilishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorida asosiy shaxsiy kasbiy fazilatlar bo'lishi zarur:

- **Liderlik** – bu aniq maqsadlar belgilash, kelajak yo'lini ko'ra bilish, tashkilotning pedagogik va taraqqiyot strategiyasini shakllantirish.
- **Mas'uliyatlilik** – bu har bir qaror va harakatda mas'ul bo'lish, natijaga javobgar, ishonchli bo'lish.
- **Halollik va axloqiylik** – bu etika tamoyillariga rioya qilish, adolat, odillik, ochiqlik – jamoa va jamiyat oldidagi mas'uliyat.
- **Emotsional intellekt** – bu o'z his-tuyg'ularini boshqara bilish, xodimlar va ota-onalar his-tuyg'ularini tushunish, murakkab psixologik vaziyatlarda ham sog'lom muloqot va ijobiy muhit saqlash.
- **Ijtimoiy-psixologik kompetensiya** – bu jamoa ichida hamkorlik qilish, motivatsiya berish, nizolarni hal etish, xodimlar va bolalar bilan insoniy munosabatda bo'lish.
- **Kommunikatsiya ko'nikmalari** – bu ochiq va samarali muloqot qilish, eshitish qobiliyati, ota-onalar va xodimlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish.
- **Moslashuvchanlik va bardoshlilik** – bu o'zgarishlarga tez moslashish – qonun, normativ, demografik yoki ijtimoiy o'zgarishlarga; qiyinchiliklar (moliyaviy, infrastrukturaviy, xodimlar bilan bog'liq masalalar) paytida psixologik chidamlilik.
- **Ijodkorlik va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash** – bu pedagogik yangi metodlar, texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonida yangiliklarni joriy etish va takomillashtirishga ochiqlik.
- **Strategik fikrlash va rejalashtirish** – bu resurslarni, vaqtni, kadrlarni samarali boshqarish, tashkilot maqsadlarini amalga oshirish uchun qisqa va uzoq muddatli rejalar tuzish.
- **O'rganishga, rivojlanishga tayyorlik** – bu ustozlash, malaka oshirish, tahlil va o'zini tanqidiy baholay olish, yangi bilimlar va tajribalarni qabul qilish.
- **Bolani markazga qo'yish** – bu har bir bolaning individual ehtiyojlarini, bolaning manfaatini birinchi o'ringa qo'yish, turli imkoniyat va ehtiyojlarga mos yondashuvni inobatga olish.

Abu Nasr Forobiy rahbarning fazilati to'g'risidagi quyidagi fikrlarni keltirgan:

- "Rahbarning tabiatan nozik, farosatli bo'lib, umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi;
- voqea-hodisalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qoladigan;
- zehni o'tkir va zukko, o'z fikrini chiroyli so'zlar bilan ifodalaydigan, ravshan tushuntira oladigan;
- ta'lim olishga, bilim va ma'rifatga havasli bo'lib, uning mashaqqatlaridan qochmaydigan;
- haq va haqiqatni, odil va haqiqiy odamlarni sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarni yomon ko'radigan;
- o'z qadrini biluvchi, oriyatli;
- tabiatan adolatparvar va o'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi kabi insoniy xislatlari alohida ta'kidlab o'tilgan".

Shunga asosan aytish mumkinki, bugungi kunda ham maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish ishlari samaradorligida direktorning shaxsiy fazilatlarini muhim o'ringa ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Quyidagi strategiyalar direktorlarning shaxsiy kasbiy fazilatlarini oshirishga yordam beradi:

1. Ta'lim va treninglar – menejment, rahbarlik, psixologiya, bolalar rivoji bo'yicha muntazam amaliyotlar va treninglar, etik-axloqiy rahbarlik, emotsional intellekt bo'yicha seminarlar o'tkazish.
2. Murabbiylik va hamkasblar bilan hamkorlik – tajribali rahbarlar yoki mentorlardan murabbiylik olish, tajriba almashish, muammolarni muhokama qilish, jamoa ichida ochiq fikr almashish va refleksiya.
3. Reflektiv faoliyat (o'zini tahlil qilish) – harakatlar va qarorlar bo'yicha o'zini baholash asosida kamchiliklar ustida ishlash, sohalarni rivojlantirishga erishish.

4. Amaliy tajriba va loyiha asosida ishlash – yangiliklarni sinab ko'rish, natijalarni tahlil qilish.
5. Shaxsiy rivojlanish – liderlik, pedagogika, psixologiya bo'yicha kitob o'qish, seminar va konferensiyalarda ishtirok etish, ichki motivatsiyani oshirish, stress bilan muomala qilish usullarini o'rganish.
6. Normativ va metodik qo'llab-quvvatlash.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish va boshqarishda ta'lim tashkiloti barcha xodimlarining o'z mehnat faoliyatlari natijalaridan birdek qoniqish hosil qilishlari, jamoadagi to'g'ri mehnat taqsimoti, xodimlarda o'z vazifalariga nisbatan mas'uliyat hissining shakllanishi, o'quv jarayonini hozirgi zamon talablari darajasida ilmiy asosda tashkil etish samaradorligi ko'p jihatdan maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining funksional vazifalarini qay darajada tushunib yetishi va amalga oshirishiga bog'liq bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti boshqarishda pedagogik xodimlar, ota-onalar va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonini kuzatish hamda barcha uchun zarur va qulay bo'lgan ruhiy muhitni vujudga keltirish ham muhim o'ringa ega. Buning uchun rahbar maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mavjud munosabatlar, tarbiyalanuvchilarning jismoniy, ijtimoiy-hissiy va intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ya'ni tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi-pedagoglar, ota-onalar bilan ta'lim tashkiloti hamda bolalar o'rtasidagi munosabatlardan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarni o'z vaqtida aniqlash hamda unga ta'sir ko'rsatishning eng maqbul yo'llarini belgilash, ta'lim-tarbiya jarayonining holati to'g'risida ishonchli axborotlar to'plash, qayta ishlash va obyektiv baholashda yuqorida nazarda tutilgan boxabarlik juda muhim ahamiyatga ega.

Shu o'rinda alohida to'xtalib o'tish lozimki, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori ta'limning asosiy maqsadi bo'lgan ta'lim va tarbiya ishini samarali tashkil etish, maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan:

- axborot-tahlil;
- maqsadli-motivlashtirish;
- oldindan ko'rish-rejalashtirish;
- tashkiliy-ijrochilik;
- nazorat-tashxis;
- tartibga solish-muvofiqlashtirish
- funksiyalarini tizimli va to'g'ri amalga oshirishi zarur.

Boshqaruv insonlarning kuchli psixologik fazilatlarini samarali amalga oshirish, zaiflarini esa bartaraf qilish imkonini beradi. Muloqotda samimiylik, ochiqko'ngillik va xushfe'llik kabi rahbardagi fazilatlar shakllanganligiga bog'liqligi o'z isbotini topgan. Peshqadam rahbarga xos fazilatlardan biri – vazminlik va sabru bardoshlikdir. Rahbar hissiyatining muvozanatlashganligi, uning ichki dunyosiga xos qarama-qarshi tuyg'ularning to'g'yoniga yo'l qo'ymaslikda va kayfiyatdagi sokinlikda ifodalanadi.

Boshqaruv faoliyatini samarali bajarish uchun rahbarga zarur fazilatlardan yana biri – muvaffaqiyatga intilishdir. Rahbar o'z oldiga maqsad qo'ya olishi va uni bajarishga urinishi lozim. Umuman olganda, insonga xos intilishni ikki toifaga bo'lish mumkin:

1. muvaffaqiyatga intilish;
2. mag'lubiyatdan qochish.

Biron-bir qiyin va inqirozli vaziyat paydo bo'lganda, ba'zi birlar mazkur vaziyatni hal etish orqali muvaffaqiyatga erishish haqida o'ylasa, boshqa birov esa talofotga uchramaslik g'amida o'zini iloji boricha "ofat"dan olib qochadi. Bu bir xil vaziyatga ikki xil yondashuv bo'lib, uning egalari turlicha xarakterdagi insonlardir. Boshqaruvni samarali olib boruvchi rahbar esa aynan birinchi toifaga mansub bo'lgani sababli, u muammolarni tez hal etadi va yanada o'z maqsadi sari oldinga intiladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy qalqish paytida o'z hamkorida ishonch uyg'otish, navbatdagi ishga kafolat berish va boz ustiga uni uddalash zamonaviy rahbar uchun muhim fazilatdir. Bu jarayonda rahbarlik tadbirkorlik faoliyati bilan uyg'unlashib ketadi va ishonch tushunchasi markaziy o'ringa ko'tariladi.

Rahbarning nafaqat obro'sini oshiradigan, balki qiyin vaziyatda uni asosiy maqsad yo'lidan yetaklaydigan fazilatlardan biri – mustaqillikdir. Rahbar o'z qarashi, mushohada layoqati va shaxsiy nuqtai nazariga egalikka intilishi lozim. To'g'ri, rahbar o'z hamkasblariga, shuningdek, maslahatchilariga quloq tutishi kerak, lekin qaror va uning ijrosi rahbar zimmasiga yuklatiladi. Shu bois, fikrlash va xatti-harakatdagi mustaqillik samarali bosh-



qaruvning asosiy omillaridan biridir. Ammo, mustaqillik qaysarlik kayfiyatiga aylanmasligi lozim. Buning uchun rahbar hamisha o'z tashabbusini tashkilot yoki jamoa maqsadlari bilan uyg'unlashtirib borishi lozim.

Navbatdagi zaruriy xislatlardan yana biri – muloqotga moyillikdir. Aniqlanishicha, rahbar o'z kundalik faoliyatining to'rtidan uch qismini turli-tuman muloqotga sarflaydi.

Rahbarning salohiyati, umuminsoniy madaniyati, muomala maromi, notiqlik san'ati, shaxsiy fazilati, mustahkam irodasi, rostgo'yiligi, g'amxo'rliqi, ishchanligi kishilarga ta'sir o'tkazishning asosiy omillari hisoblanadi. Obro'-e'tiborning pasayishi, nutqiy nuqsonlar, iqtisodiy munosabatlarni hal qila olmaslik, qat'iyatlilikning zaiflashuvi, xulq-atvordagi kamchilik tobe kishilarga ta'sir o'tkazish darajasini keskin tushirib yuboradi. Xodimlarga, tobe odamlarga so'zini o'tkaza olmaslik – rahbarlik lavozimidan voz kechish demakdir. Hissiyotga berilish, aql-zakovat ko'rsatkichining mo'rtlashuvi xodimlarga ta'sir o'tkazishning nochorligiga olib keladi.

Boshqaruv faoliyati xususiyatlarining yetarli darajada tushunilmasligi, uning idrok maydoniga sig'dira olmasligi ham muammo tug'diradi. Boshqaruv faoliyati juda murakkab bo'lib, u moliyaviy, iqtisodiy, mafkuraviy, huquqiy va tarbiyaviy tomonlarni qamrab oladi. Shuningdek, u bir qancha funksiyalarni bajaradi: "Inson – inson", "Inson – texnika", "Inson – tabiat", "Inson – obraz" munosabatlarini aks ettiradi.

Rahbar faoliyatining har bir jabhasi va funksiyalarini yuqori darajada egallash orqali yuksak martabaga erishadi. Lekin uning u yoki bu tomonini tushunmaslik evaziga korxonada ishlar yurishmay qoladi.

Odamlar bilan muomalaga kirishish jarayonida dilkashlik, ibolilik va nazokatlilikning yo'qligi katta salbiy oqibatlariga olib keladi. Rahbar etnopsixologik xususiyatlarga ega bo'lish orqali dilkashlik, ibolilik va nazokatlilik fazilatlariga ega bo'ladi. Milliy qiyofa, milliy ong, milliy xarakter, milliy his-tuyg'u, milliy shaxslararo munosabat bilan qurollanish orqali ko'zlagan maqsadga erishish mumkin. Milliy xislatlarning yo'qligi boshqaruv apparatida ishtirok etishni ma'lum ma'noda man etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, rahbarning insoniylik fazilatlarini nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruvni samarali olib borishda, ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda, balki maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limni sifatli tashkil etish va rivojlantirishga ham hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vyaznikova L. F. Теоретические и практические проблемы профессиональной переподготовки руководителей системы образования на современном этапе: монография. – Хабаровск: ХГПУ, 2002. – 122 с.
2. Nigmatova G. N. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining iqtisodiy kompetentligini shakllantirish. Avtoreferat. Toshkent, 2023.
3. Qosimova Sh. N. Dissertatsiya "Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining uzluksiz malakasini oshirishni ta'minlash texnologiyalari". Toshkent, 2023.
4. Choriyeva D. (2022). Tarbiyachining pedagogik mahoratini oshirishda pedagogik texnikaning roli. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101–103.
5. Чориева Д. А. (2022). Педагогик-психологик диагностика фаолияти билан шуғулланувчи шахсга қўйиладиган талаблар. <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.014>. Чориева Дурдона Анваровна. Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Мактабгача таълим факультети, Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в. б. доценти. Образование и инновационные исследования: международный научно-методический журнал, (9), 99–102.
6. Choriyeva D. A. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarni oshirish yo'llari. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 385.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.